

Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Qabul” interaktiv xizmatining reglamenti

1. Xizmat ta’rifi

1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Qabul”.
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko’rsatilayotgan “Qabul” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institutdga qabul qilish jarayoni to’g’risidagi barcha ma’lumotlarga to’liq ega bo’ladi.

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatura bosqichiga talabalarni qabul qilish tartibi to’g’risidagi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

1.5. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Abituriyentlar, jismoniy va yuridik shaxslar.

1.6. Bajarilish muddati

“Qabul” interaktiv xizmatiga har o‘quv yilining may oyidan boshlab yangi ma’lumotlar joylashtiriladi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. Qabul jarayoni yangiliklar.
2. Hujjatlar to‘plami.
3. Abituriyent elatmasi.
4. Ta’lim yo‘nalishlari.
5. Kirish fanlari.
6. Qabul nizomlari.
7. Qabul kvotalari.
8. Qabul natijalari.
9. Magistraturaga kirish imtixonlarining savollari ro‘yxati.
10. Magistraturaga kirish imtixonlari o‘tkazilish vaqti.
11. Xorijiy fuqarolarni qabul qilish tartibi.
12. Tayyorlov kurslari to‘g‘risida ma’lumot
13. Tushgan arizalar soni.

2.2. Batafsil ma'lumot olish

“Qabul” interaktiv xizmati to‘g‘risida ma’lumot:
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti (www.tkti.uz) ning interaktiv xizmatlar bo‘limiga joylashtiriladi.

2.3. So‘rovnoma bo‘yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha.

2.4. Xizmat ko‘rsatish manzili hakida ma’lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko‘chasi 32 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Zarur bo‘lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo‘shimcha hujjat talab etilmaydi.

4.2. Xizmat to‘lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmat ko‘rsatish bosqichlari

Interaktiv xizmat institut Qabul kommissiyasi tomonidan tashkillashtiriladi. Qabul kommissiyasi mas’ul xodimlari tomonidan barcha tegishli ma’lumotlar shakllantiriladi. To‘plangan joriy ma’lumotlar Qabul kommissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, 1 ish kuni mobaynida interaktiv xizmat ma’lumotlar bazasiga kiritiladi. Interaktiv xizmat ma’lumotlar bazasi texnik ta’minotni yuritish ATM xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.4. Davlat xizmatini ko‘rsatishning ichki idoraviy jarayoni

Bu interaktiv xizmat so‘rov-javob usulila tashkil etiladi.

4.5. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko‘rsatish dasturi o‘rnatilgan serverda profilaktik ishlar o‘tkazilayotgan bo‘lishi mumkin